ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01
RAQAMLI ILMIY KENGASHI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

QO'ZIBOYEVA LOLAXON SAIDRASUL QIZI

MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK DRAMALARIDA INSON VA BORLIQ MUAMMOSI TALQINI

10.00.02-O'zbek adabiyoti (XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK:821.512.133.09-2

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Qo'ziboyeva Lolaxon Saidrasul qizi
Mustaqillik davri o'zbek dramalarida inson va borliq muammosi talqini.....3

Quziboeva Lolakhon Saidrasul qizi
Interpretation of the problem of human and being in uzbek dramas of the independence period.....25

Кузибоева Лолахон Саидрасул кизи
Интерпретация проблемы человека и бытия в узбекских драмах периода независимости.....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
List of published work
Список опубликованных работ.....55

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

QO‘ZIBOYEVA LOLAXON SAIDRASUL QIZI

MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK DRAMALARIDA INSON VA BORLIQ MUAMMOSI TALQINI

10.00.02-O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2PhDFil2474 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtiriladi.

Ilmiy rahbar:	**Jo‘raqulov Uzoq Haydarovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Musurmonov Erkin Rabbimovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Burxonova Feruza Abdurazzoqovna filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “ 17 ”aprel soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Xojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44); faks: (99871) 281-42-44); faks: (99871) 281-12-44). (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (339) raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi,103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, faks: (99871) 281-12-44 (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “ 3 ”aprel da tarqatildi.

(2025-yil “ 3 ”aprel dagi 1-raqamli reyestr bayonnomasi).

H.A.Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

N.A.Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligi, xususan, dramaturgiyasida muayyan davr kesimida yuzaga kelgan inson va borliq muammosi filologiya sohasida yangicha qarashlarni hal qilish zaruratini taqozo etadi. Badiiy shartlilik, badiiy-estetik konsepsiya, obraz mohiyatini badiiy-psixologik idrok qilish, tragizm va tragik qahramon ifodasi yaxlit o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar sirasiga kiradi. Inson va borliq muammolariga yechim topish, ijtimoiy muhitda insoh qiyofasining ichki va tashqi olamini tasvirlash, umuman olganda, inson qadri, o'rni va vazifalarini yoritish bugungi dramaturgiyaning asosiy mavzularidandir.

Dunyo adabiyotshunosligida dramatik asarlardagi inson va borliq muammosi talqini ifodasiga o'ziga xos adabiy-estetik hodisa sifatida yondashish hamda dramaturg badiiy mahoratini ochib berish muhim masala hisoblanadi. Dramaturgning ma'naviy-ruhiy olamida kashf etilgan obrazlar tizimini inson va borliq munosabatlari bilan bog'liqlikda tahlil etish zarur. Bundagi eng muhim jihat dramatik asarlar poetikasidagi xarakterlar tasviri, uslub, badiiy shartlilik, adabiy ta'sir, an'ana va ijodiy o'ziga xoslik muammolarini keng ko'lamda kuzatishga e'tibor ortganidir. Shunga ko'ra keyingi yillarda dramatik asar poetikasini o'rganish, undagi ustuvor g'oyalarni badiiy talqin qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Istiqlol davri o'zbek dramaturgiyasi ilk qadamlardanoq ulkan ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy va ma'rifiy-axloqiy pozitsiyasini aniq belgilab oldi. Istiqlol yillari zamonaviy adabiy jarayonda muayyan ijodiy tajribalar bilan ilmiy-adabiy jamoatchilik nazariga tushgan Qutlibeka Rahimboyeva, Shuhrat Rizayev, Usmon Azim, Iqbol Mirzo, Nafas Shodmonov, Muhammad Rahmon, Husnillo Jomonqulov, Qo'chqor Norqobil, Mengliboy Murodovlarning dramatik asarlarini davr, muhit, olam va inson uzviyligida yoritish, ilmiy bahosini berish adabiyotshunoslik oldida turgan vazifalardan biridir. Zero, "Aholining madaniy va estetik ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish, teatr, musiqa, tasviriy san'at va boshqa san'at turlarini rivojlantirish, xalqimiz tarixi va bugungi hayotining eng yorqin sahifalarini, mamlakatimizning erkin demokratik taraqqiyotini aks ettiruvchi asarlar yaratish"[1] va ularni tadqiq etish jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifa sanaladi. "Epopeyada voqea, dramada odam hukmrondir. Eposdagi qahramon – voqea; dramaning qahramoni inson shaxsidir"[2], shuning uchun inson va uni qamrab turgan borliq talqini muammolarini o'rganish adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini

[1] Мирзиёев Ш.М. "Маданият ва спорт соҳасида бошқарув тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2017. 4 август.
[2] Белинский В. Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1955. – Б. 143.

rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi, 2020-yil 20-mayda Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida adabiyotning ta'sir kuchini oshirish bo'yicha topshiriqlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dramatik asarlarning poetikasiga doir qarashlar qadim tarixga ega. Platon, Aristotel, Forobiy, Bualo, Gegel, V.G.Belinskiy, L.I.Timofeyev asarlarida janr nazariyasi o'rganilgan. Sofokl, Yevripid, Anikist[3] va boshqa mutafakkirlar tomonidan tadqiq etilgan. Davrlar o'tishi bilan dramaga, uning yetakchi tamoyillariga bo'lgan ilmiy-nazariy qarashlar yangilana boshladi. Yevropa uyg'onish davri adabiyotshunosligida drama san'ati nazariyasiga Brext, Didro, Shiller, Lessing, E. Bentli[4] kabi faylasuflarning janrning rivojlantirishga qo'shgan hissasi beqiyos. XX asr 90-yillaridan e'tiboran V.Y.Xalizev, N.D.Tamarchenko[5] kabi rus adabiyotshunoslari janrlar nazariyasiga birmuncha o'zgacharoq munosabat bildira boshlashdi. Albatta, dramaturgiyaning nazariy muammolariga bag'ishlangan tadqiqot ishlari o'zbek adabiyotshunoslari A.Fitrat, I.Sultonov, B.Jalolov, E.Umarov, I.Pall[6] hamda teatr tarixi va nazariyasi, qisman muayyan ijodkor dramatik mahoratiga doir izlanishlarni amalga oshirgan B.Imomov, H.Abdusamatov, I.G'aniyev, Sh.Rizayev, U.Jo'raqulov tadqiqot ishlarida muammoning tarixi, drama nazariyasi, dramaturg mahorati, tarixiylikning badiiylik konsepsiyasi, jadid dramalari tabiati, zamon va qahramon prototipi, dramada monologik nutq va dialogik nutq tushunchalari keng qamrovda o'rganilgan[7].

---

[3] Полное собрание творений Платона в 15 т. Под ред. С.А. Жебелева, Л.П. Карсавина, Э.Л. Радлова. – Л.: Академия, 1922-1929. Т.1,4,5; Арасту. Поэтика (Нафис санъат ҳақида). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004; Форобий. Рисолалар. – Тошкент, 1975; Буало Н. Поэтическое искусство. –М., 1957; Гегель Г.В. Лекции по эстетики. Перевод И.С Попова. Сочинения. Том XIV. – М.: Издательство социально-экономическая литературы, 1958; Белинский В. Г. О драме и театре. В двух томах. – М.: Искусство, 1983; Тимофеев Л.И. Теория литературы. Основы науки о литературе. Учпедгиз, 1948; Софокл. Драмы. В переводе Ф.Ф. Зелинского. – М.: Наука, 1990; Еврипид. Трагедии. В двух томах. – М.: Художественная литература, 1969; Аникст А. Теория драмы от Аристотеля до Лессинга. – М.: Наука, 1967.

[4] Брехт. Б. Пьесы, статьи, высказывания. В пяти томах. Т. 5. – М., 1965; Дидро Д. Собрание сочинение. – М.: Л.: Наука, т. 5; Шиллер. Ф. Собрание сочинение. – М., 1957. – С. 252; Лессинг Г. Э. Гамбургская драматургия. – М., 1883; Бентли. Э. Жизнь драмы. – М.: Искусство, 1978.

[5] Хализев В. Е. Теория литературы: учебник для студентов высших учебных заведений; В.Е. Хализев. – 5-е изд., испр. И доп. – М.: Издательский центр Академия, 2009. – 432 с.; Теория литературы. В 2 т. Под ред. Тамарченко Н.Д (alleng.org). – М.: 2004, Т.1-512 с.; Т. 2. – 368 с.

[6] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006; Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980; Жалолов Б. Ўзбек драматургияси поэтикаси масалалари. – Тошкент: Фан, 1984; Умаров Э. У, Палл И.С. Жанр эстетикаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1985.

[7] Имомов Б. Ва бошқалар. Ўзбек драматургияси тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995; Абдусаматов Х. Драма назарияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2000; Ғаниев И. М. Фитрат драмалари поэтикаси. Филол. фан. д-ри. (DSc)

XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmiga kelib, bu ehtiyoj to‘g‘ri anglab yetildi. Jumladan, N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Normatov, O.Sharafiddinov, E.Karimov, T.Boboyev, B.Qosimov, N.Vladimirova, Sh.Yusupov, U.Dolimov, Sh.Rizayev, S.Ahmedov, H.Umurov, E.Xudoyberdiyev, A.Aliyevlarning jadid adabiyoti namoyandalari shaxsiyati va adabiy merosiga bo‘lgan munosabat yangilandi[8].

Adabiyotshunoslar A.Soliyev, N.Odilova, D.Rasulmuhammedova, D.Rahmatullayeva, M.Otajonova, M.Umarova, N.Tursunova, V.Ahmedovalar izlanishlarida muammoning u yoki bu jihatlari monografik shaklda o‘rganilgan[9]. Quyidagi tadqiqot sirasidan, ayniqsa, H.Abdusamatov bilan dramashunos Shuhrat Rizayev asarlarini ta’kidlash joiz. “Drama nazariyasi” tadqiqotida H.Abdusamatov davr ruhi va qahramon ma’naviyatining badiiy talqinlarini konflikt, xarakter, syujet va kompozitsiya, til masalalari uyg‘unligida kuzatadi. Shu asosda yuzaga kelgan dramaning xilma-xil janr ko‘rinishlarini alohida tahlilga tortadi. Uningcha, drama tarixi va nazariyasi bu – hayot bilan hamnafaslikdagi rivojlanish bosqichlari, o‘ziga xos an’analar, o‘zaro ta’sir omillari demak. Drama adabiy tur sifatida jamiyatni, ijtimoiy voqelikni, odamlar psixologiyasini badiiy tahlil etarkan, bu narsa uning rang-barang janr ko‘rinishlarini ham maydonga keltiradi. Alp Jamol miniatyuralari, O‘lmas Umarbekovning “Shoshma, Quyosh”, “Qiyomat qarz”, “Kurort”, “Kuzning birinchi kuni” singari pyesalarining janr xususiyatlariga alohida diqqatni qaratadi[10]. Shuhrat Rizayev “Jadid dramasi” tadqiqotida XX asr boshlarida o‘zbek sahna madaniyatining yuzaga kelishi, shakllanish omillari, rivojlanish xususiyatlari, tamoyillari haqida so‘z yuritsa[11], “Sahna ma’naviyati” asarida san’at estetikasi, hayot va inson ruhiyati, jamiyat va san’at xususida mushohada-muhokamalarini bayon etadi[12]. Shuningdek, ushbu silsilada adabiyotshunos N.Odilovaning “O‘lmas

---

...дис. – Тошкент: 1998; Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997; Жўракулов. У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015.

[8] Каримов Н, Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999; Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001; Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004; Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002; Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Xalq merosi, 2004; Умуров Ҳ. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2002; Умуров Ҳ. Бадиий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001; Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995; Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997; Куронов Д. Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010; Салаев Ф., Қурбониёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010; Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018.

[9] Солиев А. Ўзбек драматургиясида инсон талқини. Филол. фан. д-ри. (DSc) дисс. – Тошкент: 2012; Одилова Н. Ўлмас Умарбеков драмаларида маънавий-ахлоқий муаммолар. Филол. фан. б. фалс. док... дисс. автореф. – Тошкент: 1997; Расулмуҳаммедова Д. Истиқлол даври ўзбек драматургиясида Амир Темур образини яратиш муаммолари. Филол. фан. б. фалс. док... дисс. автореф. – Тошкент: 2000; Раҳматуллаева Д. XX аср ўзбек драматургияси ва театр санъатида тарихий драма (шаклланиш ва ривожланиш муаммолари). Санъат. фан. б. фалс. док... дисс. – Тошкент: 2004; Отажонова М. О. Иззат Султоннинг сўнгги йиллар драматургиясида замон ва қаҳрамон концепцияси. Филол. фан. б. фалс. док... дисс. автореф. – Тошкент: 2007; Умарова М. Тарихий драмада бадиий вақт концепцияси (Шекспир ва Фитрат драмалари мисолида). Филол. фан. б. фалс. док... дисс. автореф. – Тошкент: 2011; Турсунова Н. Ҳозирги узбек драматургиясида фольклор стилизацияси. Филол. фан. б. фалс. док... дисс. автореф. – Тошкент: 2020; Аҳмедова В. Мустақиллик даври ўзбек драматургиясида давр ва шахс фожиасининг янгича талқинлари. Филол. фан. б. фалс. док... дисс. автореф. – Тошкент, 2021.

[10] Абдусаматов Ҳ. Драма назарияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2000. – Б. 26.

[11] Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 35.

[12] Ризаев Ш. Саҳна маънавияти. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 35.

Umarbekov dramaturgiyasida ma'naviy-axloqiy muammolar"[13] nomli nomzodlik dissertatsiyasini ta'kidlash joiz. Dissertant adib talqinidagi hayot va inson psixologiyasi masalasiga ma'naviy-axloqiy yo'nalishda yondashadi. Asosiy e'tiborni vijdon va imon tushunchasi, uning dramatik talqini masalasiga qaratadi. Zero, vijdon va imon insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida o'zak mohiyatni belgilaydi. Binobarin, "vijdon, iymon tushunchasi adabiyotning badiiy-estetik tizimida insoniylikning, uning ma'naviy-axloqiy kamolining asosiy mezoni deb qaraladi". B.Sheraliyev "Sahnaviylikning dramatik asoslari"[14] mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida hayot, ijtimoiy muhit va xarakter uyg'unligiga asosiy diqqat-e'tibor qaratadi. Shaxs psixologiyasini ochishda ijtimoiy muhitning ta'siri tuyg'ular dramatizmini vujudga keltiradiki, dissertant xuddi shu narsaga alohida urg'u beradi. H.Azimova esa "Abdulla Avloniy dramaturgiyasi (g'oyaviylik va mahorat)"[15] mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida jadid mafkurasi badiiy tafakkurga olib kirgan yangi ruhni kuzatadi. Abdulla Avloniy pyesalarining tahlili misolida millatning ma'nan boyishi va o'z-o'zini anglashi yo'lida tutgan o'rniga e'tibor qaratadi. Zamon va inson masalasini jamiyat va shaxs psixologiyasining vobastaligi nuqtayi nazaridan o'rganadi, ilmiy umumlashma mulohazalar bildiradi.

Istiqlol davri o'zbek dramaturgiyasining ayrim dramatik asarlari tahlilga tortilgan bo'lsa-da, dramada inson va borliq muammosi o'rganilmagan. Aynan "Mustaqillik davri o'zbek dramalarida inson va borliq muammosi talqini" mavzusiga bag'ishlangan maxsus tadqiqot yo'q. Dissertatsiya ayni shu muammo yuzasidan monografik yo'sinda ilk bor tadqiq etilmoqda.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Jahon va o'zbek adabiyotini qiyosiy-tipologik o'rganishning umumnazariy muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mustaqillik davri o'zbek dramalarida inson va borliq muammosining badiiy talqin etilish usullari, poetik talqinlarning milliyligi, ayni asarlarda davr, jamiyat va muallif konsepsiyasining o'ziga xosligini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dramatik asar, unda inson va borliq munosabatlarini dialogik aks ettirishning ijtimoiy-tarixiy, badiiy-estetik omillarini yoritish, ilmiy tasniflash, ayni dramalarga xos milliy o'zlik va tarixiylik kategoriyalari haqida fikr yuritish;

zamonaviy o'zbek dramalarida ideal-tarixiy obrazlar, milliy ma'naviyat muammolarining inson va borliq munosabatlari asosida badiiy talqin etilish usullarini tahliliy ochib berish;

---

[13] Одилова Н. Ўлмас Умарбеков драмаларида маънавий-ахлоқий муаммолар. Филол. фан. б. фалс. док... дисс. автореф. – Тошкент: 1997. – Б. 10.

[14] Шералиев Б. Сахнавийликнинг драматик асослари. Филол. фан. б. фалс. док... дисс. автореф. – Тошкент: 1998. – Б. 26.

[15] Азимова Ҳ. Абдулла Авлоний драматургияси (ғоявийлик ва маҳорат). Филол. фан. б. фалс. док... дисс. автореф. – Тошкент: 1999. – Б. 26.

inson va borliq muammosi bugungi o'zbek dramalari syujeti va kompozitsion qurilishida qanday aks etganini ko'rsatish;

dramatik asarda inson va borliq muammosini badiiy talqin etishning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy-estetik ahamiyati haqida nazariy xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasida yaratilgan Qutlibeka Rahimboyevaning "Tavba", Shuhrat Rizayevning "Iskandar", "Diskoteka", Usmon Azimning "Bir qadam yo'l", To'ra Mirzoning "Usmon shoir – osmon shoir", Muhammad Rahmonning "Abadiy nido", Nafas Shodmonovning "O'lan", "Qobil ila Hobil", "Maxzan", "Abu Muin Nasafiy", "Abu Rayhon Beruniy", Qo'chqor Norqobilning "Zamindan olisga ketma", "Biz ham odammiz", Husnillo Jomonqulovning "Mozordagi bozor", Mengliboy Murodovning "Uyg'onish", Iqbol Mirzoning "Usmon Nosir" asarlari olindi.

Tadqiqotning predmetini mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasida inson va borliq obrazining badiiy talqini poetikasiga xos taraqqiyot tamoyillarini aniqlash va dramatik asarlar poetik ko'lami, tafakkur tarzidagi ijodiy uyg'unlik, umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini isbotlash, dramaturg adabiy-estetik qarashini yoritish masalalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, sotsiologik, psixologik, germenevtik metodlar hamda tavsiflash, tasniflash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasi o'ziga xos ijodiy-estetik jarayon ekani, makon va zamon xususiyatlaridagi o'zgarish hamda yangilanishlarning umumnazariy muammolarini, xarakterlar dramatizmi orqali inson va borliq muammolarini ijtimoiy-adabiy hamda milliy va umumbashariy qadriyatlarning o'zaro uyg'unlikda aks etishi, ideal tarixiy shaxs va zamondosh inson qiyofasining tasvirlanishi kabi estetik omillar aniqlangan;

mustaqillik dramaturgiyasida milliy istiqlol davrining yetakchi tamoyillaridan tarixiylik, qahramonlar tabiatida zohir bo'lgan xislat-fazilatlar adib estetik ideali tajassumi sifatida yoritilgan, mavzu jihatdan tasnif qilingan, ideal tarixiy inson obrazini yaratish tamoyillari ustuvorligi, ijtimoiy-maishiy hayot muammolarining yangicha talqinlari ochib berilgan;

inson va borliq muammolarini poetik ifoda etgan Qutlibeka Rahimboyeva, Muhammad Rahmon, Nafas Shodmonov, Qo'chqor Norqobil dramatik asarlari tahlili asosida istiqlol davri dramaturgiyasining mavzu jihatidan o'sishi uning taraqqiyot yo'nalishlarini belgilab bergani, ijtimoiy-ma'rifiy, adabiy-estetik omillarga asoslangani dalillangan;

asar mansub bo'lgan janrga xos kompozitsion tip xususiyatlari dramatik asar syujeti misolida ochib berilgan, dramatik asar syujeti va kompozitsiyasiga xos nazariy qonuniyatlar, ularning davrga monand o'zgarib borishi kabi masalalar ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

istiqlol davri o'zbek dramaturgiyasi janrlar takomilidagi o'zgarishlar, poetik tasvirning o'ziga xosligi Q.Rahimboyeva, N.Shodmonov, M.Rahmon, Q.Norqobil asarlari misolida ochib berilgan;

dramaturglar asarlarida inson obrazi tabiati, dunyoqarashi, xarakterlar dramatizmi orqali ifoda etilishida milliy va umumbashariy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unlikda tasvirlanishi ideal tarixiy shaxs va zamondosh inson qiyofasi misolida ochib berilgan;

dramatik asarlarda sinkretik xususiyatlar, kitobxon va tomoshabin tomonidan qabul qilinishi jarayonidagi murakkabliklar, har bir dramaturgning o‘ziga xos obraz yaratish mahorati, hayotdagi chigal hodisalarga yondashish tamoyili, milliylik, umuminsoniylik qadriyatlaridan bahra olish, inson va inson, inson va borliq, inson va jamiyat munosabatlarida yangicha mavzu va g‘oyalarning poetik talqinlari ilmiy dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv usullari va nazariy ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan manbalarning ilmiy metodlar vositasida asoslangani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan nazariy xulosalar mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida inson va borliq muammosi talqinini o‘rganish, keng ko‘lamda monografik tadqiq qilishda muhim nazariy ahamiyat kasb etishi, hozirgi adabiy jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarixiy va zamonaviy mavzularda yaratilgan o‘zbek dramalarida inson va borliq muammosini o‘rganishga oid materiallaridan oliy o‘quv yurtlarida “Hozirgi adabiy jarayon” va “O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi”, “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Adabiyot nazariyasi”, “O‘zbek adabiyoti tarixi” fanlari bo‘yicha ma’ruzalar o‘qishda, hozirgi adabiy jarayon, XX asr o‘zbek adabiyoti, o‘zbek dramaturgiyasi masalalari bo‘yicha maxsus kurslar o‘tishda, akademik litsey va umumta’lim maktablarida dars mashg‘ulotlari olib borishda, darslik, o‘quv qo‘llanmalar va majmualar yaratishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida inson va borliq muammosi talqinlarini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida yozuvchi ijodining yetakchi xususiyatlari, dramatik asarlarda ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy muammolarning aks etish qonuniyatlari, realistik tasvir tamoyillari, badiiy-estetik o‘ziga xosligi, qahramonlar portretini yaratishda, ota obrazining dramatik talqini Usmon Azimning “Bir qadam yo‘l”, Yujin O’nil “Qayrag‘och soyasida” dramalarida “ota” obrazi xarakteriga doir iboralar, qahramonlar xarakterini yoritishdagi birikmalarning badiiy asardagi xususiyatlari aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 raqamli “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7 jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 13-iyundagi 04/1-1575-son ma’lumotnomasi). Natijada,

mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida sharq adabiyotiga xos ijtimoiy-falsafiy, diniy-ma’rifiy mavzularning tasvirlanishi, inson va borliq muammosini yorituvchi manbalarni ilmiy-nazariy boyitishga asos bo‘lgan;

“Inson va borliq” obrazining adabiyot tarixidagi poetik tadriji, bugungi kunda drama qahramonlarining ma’naviy-axloqiy dunyosi o‘rganilib, ularni aks ettirishdagi badiiy-estetik izlanishlar yoritildi; mustaqillik davri dramaturgiyasida ziddiyatning tuyg‘ular kolliziyasi, fikr-kechinmadagi botiniy ko‘rinishlari, o‘ziga xos belgilari aniqlanganligi yuzasidan xulosalar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2021-yillarda bajarilgan I-OT-2019-42 raqamli “O‘zbek va ingliz tillarining elektron (inson qiyofasi, fe’l-atvori tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug‘atini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 13-iyundagi 04/1-1576-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha mazmuni o‘zbek dramaturgiyasida inson obrazini o‘rganish va boyitish uchun xizmat qiladigan individual xususiyatlariga doir materiallar bilan boyitilgan;

milliy istiqlol davrining yetakchi tamoyillaridan tarixiylik, qahramonlar tabiatida zohir bo‘lgan xislat-fazilatlar adib estetik ideali tajassumi sifatida yoritilgan, mavzu jihatdan tasnif qilingan, ideal tarixiy inson obrazini yaratish tamoyillari ustuvorligi ochib berilgan “Nuh kemasi”, “Usmon Nosir”, “Iskandar” dramalarida “tarixiy” obrazlarning xarakterini yoritishdagi birikmalarning badiiy asardagi xususiyatlari aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 raqamli “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7 jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 13-iyundagi 04/1-1575-son ma’lumotnomasi). Natijada, tarixiy mavzularning mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida yoritilishiga, ilmiy-nazariy boyishiga asos bo‘lgan.

Bugungi dramatik asarda inson qiyofasini, kamolotga yetgan shaxs sifatida anglashimiz mumkin. Shuhrat Rizayevning “Iskandar”, Nafas Shodmonovning “Qobil ila Hobil”, Muhammad Rahmonning “Abadiy nido”, Mengliboy Murodovning “Uyg‘onish” va Qo‘chqor Norqobilning “Biz ham odammiz” kabi dramatik asarlari adabiyotimizga iymonli, vijdonli, halol insonlar prototipini bera oldi. Mavzuga oid ma’lumotlardan “Assalom O‘zbekiston”, “Yangi O‘zbekiston” kabi ko‘rsatuvlar ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston teleradiokanali 2024-yil 16-fevraldagi 02-18-257-son ma’lumotnomasi). Natijada, teledastur uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni dramaturg ijodiga oid ilmiy materiallar bilan boyishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 11 ta. Shundan, 8 ta xalqaro, 3 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, jumladan, xorijiy jurnalda 2 ta, 5 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, har bir bob ikkitadan fasldan tashkil topgan. Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 140 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsadi hamda vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilingan ishlar va tadqiqotning tuzilishi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Dramatik asarda inson va borliq munosabatlarining dialogik talqini"** deb nomlanib, 1.1 §da *"Dramada inson obrazining ijtimoiy-tarixiy, adabiy-estetik asoslari"* tadqiq qilingan. Mavzuning tadqiqiga kirishdan oldin Qur'oni Karimda insonga berilgan baho va borliq tushunchalari haqida fikrlar yuritildi. Dramaturgiyada inson va borliq tushunchasining uyg'un aks ettirilishi muammolariga diqqat qaratilgan. Ilmiy-nazariy manbalar bilan bir qatorda muammoning keng va umuminsoniy talqinlarini aks ettiruvchi Qur'oni Karim oyatlari, Muhammad alayhissalom Hadislariga ham murojaat qilingan. Shu tariqa inson va borliq muammosining qadim ildizlari, badiiy tafakkurga o'tish sabablari va poetik natijalariga doir xulosalarga kelingan.

Ma'lumki, inson hayotining mazmuni, mohiyati, yashash qonuniyatlari muqaddas Qur'oni Karim oyatlari va Hadisi shariflarda mukammal ifoda topgan. "Bu (oyatlar) odamlar ogohlantirilishlari, va (Alloh) yagona Iloh ekanini bilishlari hamda aql egalari eslatma olishlari uchun bir bayonotdir"[16]. Albatta, Qur'oni Karim, Muhammad alayhissalom hadislari asosida yuzaga kelgan Sharq-islom adabiyotida Alloh taoloning qudrati, U yaratgan olam va undagi insonning o'rni va o'zligini anglatish masalasi ustuvorlik qiladi. Inson hamma zamonlarda adabiyotning bosh mavzusi bo'lib kelgan.

"Dramaturgiya olis antik davrlardan boshlab bugungi kungacha san'atning alohida turi sifatida Olam va Odamni anglashga qaratilgan mohiyati bilan e'tiborga sazovordir"[17]. Aristotel "Poetika" asarining "Tasvirlash predmetining xilma-xilligi" bobida: San'atkorlar muayyan shaxslarni tasvirlaydilar, ular esa yaxshi va yomon bo'lishi mumkin. Ular bizdan yaxshiroq yoki bizdan yomonroq yoki hatto bizdek bo'ladilar. Homer – eng yaxshilarini, Kleofont – oddiy odamlarni ko'rsatadi. Parodiyalarning birinchi ijodchisi fasoslik Gegemon yoki "Deliada"ning avtori Nikoxar yomon odamlarni gavdalantirgan, – deya o'z davri dramaturgik qahramonlariga adabiy-estetik qarashlaridan kelib chiqqan holda "faol-shaxslar" atamasini qo'llagan. Aflotun o'zining "Davlat" asarida yangi davlat qurish, yangi jamiyatda odamlarning vazifalari, xalq va davlat o'rtasidagi munosabatlar majmuyi

---

[16]Қуръони Карим. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2012. – Б. 261. (Qur'oni Karimning barcha sura va oyatlari shu tafsirdan olingan bo'lib, keyingi o'rinlarda faqat sura nomi, oyat raqami ko'rsatiladi).

[17] Отажонова М. Иззат Султоннинг сўнгги йиллар драматургиясида замон ва қаҳрамон концепцияси. Филол. фан. б. фалс. док... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б. 25.

haqida qimmatli mulohazalar bildirgan[18]. Sofokl insonning qanday bo'lishi kerakligini tasvirlash san'atning birinchi vazifasi deb hisoblagan bo'lsa, Yevripid insonni qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlash kerak deya uqtiradi[19]. Sofokl tragediyalarida hayot haqiqati bilan badiiy haqiqat hamisha ham muvofiq kelavermaydi, biroq Yevripid asarlarida kundalik hayot haqiqatiga yaqinlashadi, tomoshabinlar boshdan kechirgan voqea-hodisalarga o'xshab ketadi[20].

Nemis faylasufi Fridrix Shelling "Transendental idealizm sistemasi" asarida borliqni anglashda "san'at abadiy va haqiqiy qurol (organon) va bir paytning o'zida falsafiy hujjat"[21], – deb yozadi. San'at asari haqida gapirib, "Asl san'atkor yaratiqlariga beixtiyor tubsiz teranlik baxsh etar ekan, o'z niyatini qattiq o'ylab, pishitishiga qaramay, bu teranlikni uning o'zi ham, boshqa birov ham to'lig'icha anglab yetolmaydi"[22], – deb ta'kidlaydi. "U inson edi!" degan tarixiy ma'noga to'la so'zlarida Shekspirning insonning qadri, ijtimoiylashuvi, badiiy-estetik his-tuyg'ulari ifoda etilgan. Shiller ta'biri bilan aytganda, ma'lum ma'noda "Inson" hamma narsadir.

M.Baxtin dialog nazariyasiga ko'ra, badiiy asar chegaralarini buzib, ijtimoiy odam hududiga ko'chishi, unda muayyan maqom egallashi mumkin. Ayni shu sababli dialog chek-chegara bilmaydi va har qanday holatda ham intihosizdir. "Epopeyada voqea, dramada odam hukmrondir. Eposdagi qahramon – voqea; dramaning qahramoni inson shaxsidir"[23]. Arastu esa "...shoirning vazifasi haqiqatan bo'lib o'tgan voqea haqida emas, balki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan, demak bo'lishi taxmin etilgan yo bo'lish zarur bo'lgan voqea haqida so'zlashdir" kabi ta'rifida yaratilayotgan badiiy borliqdagi inson va uning qarashlari xususida fikr yuritadi"[24]. Umuman olganda, badiiy asardagi inson va uning har bir ijtimoiy davrdagi yangicha qiyofasi, yangicha qarashlarini aks ettirishning tarixiy asoslari uzoq tarixga ega. "Eng qadimgi yozma manbalarda ham inson konsepsiyasi aks etganligi ilmiy tadqiqotlarda e'tirof etilgan"[25].

Adabiyot borliqni, undagi voqea-hodisalarni, jumladan, insonni o'rganish maqsadi ustiga bunyod bo'lgan: "Badiiy adabiyot borliqni obrazlar vositasida badiiy idrok etish orqali bizning olam, odam, jamiyat haqidagi bilim va tasavvurlarimizni boyitadi"[26]. Inson konsepsiyasi nafaqat bugungi, umuman, ijtimoiy-siyosiy hayotning, badiiy madaniyatning o'zak markazini tashkil etadi. Shu ma'noda dramaturgiya asarlarida ham, kuzatilayotgani singari, har bir davrda inson haqidagi badiiy-estetik, falsafiy, g'oyaviy mazmunni tushunish, o'rganish va umumlashtirishda drama yaratilishiga ta'sir etgan ijtimoiy-madaniy, diniy-e'tiqodiy, adabiy-estetik, psixologik omillar muhim rol o'ynaydi.

---

[18] Афлотун. Давлат: насрий достон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б. 464.
[19] Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1980. – Б. 123.
[20] Аникст А. Теория драмы от Аристотеля до Лессинга. – М.: Наука, 1967. – С. 11.
[21] Шеллинг Ф.В.Й. Соч. В 2-х т., Т.1. – М.: Мысль, 1987. – С. 484.
[22] Shu manba. – B. 477.
[23] Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1955. – Б. 143.
[24] Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 32.
[25] Кўчқоров Т.О. Ёзма манбалардаги эпик сюжетларнинг бадиий эволюцияси. Филол. фан. б. фалс. док... дисс. автореф. – Самарқанд, 2016. – Б. 44.
[26] Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 97.

1.2§ "*Inson va borliq munosabati dramatik asarning o'zak muammosi sifatida*" tadqiqiga bag'ishlangan. "Adabiyotning bosh vazifasi bu insonni himoya qilish, insonni ulug'lash. Undagi g'ayriinsoniy illatlar va odamiylik fazilatlarini kashf etish. Insonning ko'nglidagi Rahmon bilan fe'lidagi shaytonning sir-sinoatlarini, qilmish-qidirmishlarini ochib berish"[27] ekani ko'rinadiki, bugungi dramatik asarlar ham inson shaxsiyati haqidagi muallif dunyoqarashi, g'oyaviy-estetik qarashlari, hayotiy ideali va ijodiy maqsadini ifoda etadi. 1920-yillardan e'tiboran o'zbek dramaturgiyasida inson obrazi maishiy plandan ijtimoiy planda faollasha boshladi. Bu borada jadidshunos Fitrat o'z qahramonlari – Rahimbaxsh, Nuriddin, Sarvarxon, Zulayholarni ziyoli inson sifatida dramaturgiyaga taqdim etdi.

"Drama qahramoni odamdir, dramada odam ustidan voqea hukmronlik qilmaydi, balki voqea ustidan inson hukmronlik qiladi, inson o'z irodasi bilan voqeani istagancha yakunlaydi, unga istagancha xotima beradi"[28].

"Dramatik asarda nimaiki ifoda etilmoqchi bo'lsa, bizning oldimizda harakat etib turgan, ya'ni o'z oldidagi va o'z ichidagi to'siqlar bilan kurashib, ularni yengib yoki ulardan yengilib, iztirob chekayotgan, tantana qilayotgan va hokazo inson shaxsi orqaligina ifoda etiladi"[29].

Inson obrazi universal obraz tipiga kirganligi bois biz bugungi kun dramaturgiyadagi inson obrazini quyidagicha tasnif qildik:

tarixiy prototipiga ko'ra ideallik kasb etuvchi obrazlar: (Nafas Shodmonov: "Nuh kemasi", "Qobil ila Hobil"; Shuhrat Rizayev: "Iskandar");

sinovdagi inson obrazi: (Husnillo Jomonqulov: "Mozordagi bozor");

real tarixiy dalillar asosida maydonga kelgan obrazlar: (Nafas Shodmonov: "Abu Rayhon Beruniy", "Abu Muin Nasafiy" To'ra Mirzo: "Usmon shoir – osmon shoir"; Iqbol Mirzo: "Usmon Nosir");

Vatanparvar inson qiyofasi: (Qo'chqor Norqobil: "Zamindan olisga ketma"; Sh. Rizayev: "Diskoteka");

vijdon iztiroblari ichida o'zini anglagan inson obrazi: (Q. Rahimboyeva: "Tavba"; Qo'chqor Norqobil: "Biz ham odammiz", Nafas Shodmonov: "Maxzan"; Muhammad Rahmon: "Abadiy nido");

taslimiyatdagi inson siymosi: (Mengliboy Murodov: "Uyg'onish"; Usmon Azim: "Bir qadam yo'l").

Ayni tasnif va shu asosdagi tahlillar mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasida to'qnashuvlar dramatizmi, lirizm va dramatizm sintezi, romantik tuyg'ular hamda falsafiy umumlashmalarni ifodalash, qahramonlar xarakteri tasvirida ijtimoiy muammolarni talqin etish yetakchi tamoyilga aylanganini ko'rsatdi.

Usmon Azimning "Bir qadam yo'l" dramasida Sharq otasi obrazini ko'ramiz. Erkin A'zamning "Tanho qayiq"[30] dramatik asarida insonlar obrazi kuchli tasvirlangan bo'lmasa-da, Orol bobo hayotida dramatizm elementlari uchraydi. Orol boboning o'y-kechinmalari, orzulari, armonlari, oqilona fikrlari, tashvishli holatini muallif chuqur dramatizm asosida ochib bergan. 70-yillar dramaturgiyasida

---

[27] Раҳимжонов Н. Бугуннинг қаҳрамони ким? // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. № 6. – Б. 10.

[28] Белинский В. Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1995. – Б. 144-145.

[29] Адабиёт назарияси. Икки томлик. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 294.

[30] Эркин Аъзам. Танҳо қайиқ. Киноривоят // Эркин Аъзам. Танҳо қайиқ. Киноқиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2017 – Б. 171-212.

O‘.Umarbekovning “Qiyomat qarz” dramasidagi Sulaymon ota obrazi o‘sha davr dramaturgiyasida inson obrazini yangi bosqichga olib chiqqan[31] bo‘lsa, “Bir qadam yo‘l” dramasidagi Chol obrazi va “Tanho qayiq” dramasidagi Orol bobo uning bugungi kundagi tipik davomchisidir. Ba’zan “Inson o‘z o‘tmishining faqat shodon lahzalarini emas, hatto o‘ta qayg‘uli, iztirobli damlarini ham sog‘inishi”[32]ni rad etib bo‘lmaydi. O‘tmishiga, o‘z oroliga, yaxshi ko‘rgan kasbiga (qayiqchilik) xiyonat qilmagan sadoqatli, iymon-e’tiqodli, gunohdan qo‘rqadigan, asl kelib chiqishini unutmagan inson qiyofasini Orol bobo qiyofasida ko‘ramiz.

Umumbashariy mavzular yoritilgan dramatik asarlar markazida insonlarning o‘ziga xos individual xususiyatlari ulkan voqealar zaminida ochib beriladi. O‘zbek dramalarining tub o‘zagi ham ana shu konsepsiya asosida uzviy bog‘lanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Hozirgi o‘zbek dramalarida milliy o‘zlik va tarixiy kategoriyalar uyg‘unligi”** deb nomlangan bo‘lib, 2.1 §da “*Inson va borliq muammosining ideal-tarixiy obrazlarda namoyon bo‘lishi*” masalasi tadqiq qilingan. Ilk faslida Nafas Shodmonovning “Nuh kemasi”, Shuhrat Rizayevning “Iskandar”, Muhammad Rahmonning “Abadiy nido”, kabi dramatik asarlari tahlil etilgan.

Dramaturg Nafas Shodmonov “Nuh” obraziga murojaat qilishida mumtoz adabiyot oziqlangan sarchashmalarga murojaat qilish, an’anani davom ettirishni ko‘zda tutgani ayricha ahamiyatga ega. Dramaturg asarda Nuh obrazini haqiqiy ideal obrazlar sirasida ko‘radi. Pyesada ishtirok etuvchilar Nuhning farzandlari: Som, Hom, Yofas va ularning ayollari. Yelpik obrazi – shaytoni lay’inni talqin etadi. Bunda muallif shaytonning qadim turkiy manbalardagi nomlanishini asos qilganki, bu jihat asar tarixiyligini oshuviga xizmat qilgan. Dramaturg asarda hayvonot olami orqali mehr-muhabbat, sadoqat, xoinlik, ig‘vogarlik fe’l-atvorlarini qiyoslaydi (metoforiklashtiradi). Shubha, gumon ishonchsizlik, hasad va boylikka hirs qo‘yishni Yelpikka yuklaydi. Pyesa suv va kema tasviri bilan boshlangani bejiz emas. U ko‘proq ramziy mohiyat kasb etgan. Xususan, suv barcha davr poetikasida universal timsol bo‘lib, tiriklik, poklik, hayot asosi, inson joni va ruhi, boqiylik, poklanish kabi rang-barang ma’nolarni ifodalaydi. Kema ushbu asarda – sinov yo‘li ramzi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek folklori va mumtoz adabiyotimizda mavjud ilohiy syujet va obraz talqinini davom ettirgan dramaturg Nuh alayhissalom obrazlarini zamonaviy didaktika bilan uyg‘unlashtirishga erishgan.

Dramaturg ayni masala talqinida tarixiy dalillarni solishtirish usulidan boradi. Bu sinov motivlarining hammasi Qur’oni Karimdagi Nuh (a.s)ga xos tarixiy obrazga sintezlashganini ko‘rsatadi. Insonning ezgulik va yovuzlik sarhadlarida sinoatdan o‘tish jarayoni drama negizida tasvirlanib boriladi.

Ideal tarixiy-adabiy qahramonlar xalq orasida anchagina mashhur obrazlar bo‘lib, real hayotga muvofiqlashtirilib, ijodkorning g‘oyaviy-estetik, ijtimoiy-falsafiy qarashlarini aks ettirishda vosita rolini bajaradi. Alisher Navoiy Iskandar obrazini talqin qilishda mana shu mezonga qat’iy amal qiladi. Iskandar yo‘li tarixini chizishda Qur’oni Karimdagi Zulqarnayn syujeti mazmun-mohiyatini maksimal darajada istifoda etadi. Natijada dostondagi Iskandar obraziga xos fotihlik va

[31]Солиев А. Ўзбек драматургиясида инсон талқини. Филол. фан. д-ри. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 25.

[32]Жўракулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 183.

donishmandlik yo'li adolat mezonidan bir lahza bo'lsin chetga chiqmaydi[33]. "Metafora shoirga o'zining ichki olamini (tashqi olamga qiyosan) va o'zidan tashqaridagi olamni (ichki olamiga qiyosan) anglashga yordam beruvchi tengi yo'q vositadir"[34]. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida ham qahramonlar xususiyatlarini ifodalashda metaforik ko'chimlardan unumli foydalanilgan. Shuhrat Rizayevning "Iskandar"[35] tarixiy dramasi ham ana shunday konsepsiyadan chiqib ketmagan. Bir so'z bilan aytganda, Iskandar obrazi biografiyasi, asar syujeti xususiylikdan umumiylikka tomon rivojlanib boradi, haqiqatparvar inson, odil hukmdor timsoli o'laroq namoyon bo'ladi. Asar matnida muallif qo'llagan metaforik obrazlar ma'noni ta'sirchan ifodalashga qahramon xususiyatlarini amalda ko'rsatishga pand-nasihat semalari ko'rinishida xizmat qildirgan.

Muhammad Rahmonning "Abadiy nido"[36] dramatik asari qahramonlari Detiktiv laqabli yigit, Fizik o'qituvchi, Taqvodor domla, imom, Uchar aslida Ko'char tijoratchi. Drama suhbat-dialog asosida qurilgan. Muallif dialog jarayonida Taqvodor orqali insonlarga muqaddas kitobimizdagi oyatlarni, hadislarni so'zlatadi, bu esa insonning o'zligini anglashi to'g'ri yo'ldan adashmay halol hayot kechirishning eng to'g'ri yo'l ekanini urg'ulaydi. Dramaturg *Dovud alayhissalom Payg'ambar, avliyo, Odam Ato, Rasuli akram, Imomi a'zam, Qaffol ash-Shoshiy* kabi ideal-tarixiy obrazlarni keltirar ekan, umumiy ma'noda inson fenomenini oliy maqomda tasvir etadi. Asar syujetini bevosita bugungi kun voqealari bilan bog'lar ekan, ideal tarixiy shaxslar orqali inson va borliq munosabatlarining muammolariga yechim topadi. Shu ma'noda, ideal tarixiy obrazlar asar badiiy dunyosida badiiy obrazdan ko'ra, real inson fenomeni talqinida ko'proq tasvirlanmoqda degan xulosani beramiz. Zotan, shu kabi ideal-tarixiy shaxslarni muallif estetik ideallaridan xoli ko'rsatish mumkin emas.

Ikkinchi bobning 2.2§ *"Zamonaviy dramalar milliy-ma'naviy va tarixni aks ettiruvchi poetik fenomen sifatida"* tadqiqiga bag'ishlangan. Mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasini o'rganishda zamonaviy mavzudagi pyesalar tahlil qilindi. Dramatik asarlarni g'oya va funksiyasiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Milliy- ma'rifiy dramalar: *a) Qahramonlarning milliy-madaniy, ma'naviy-axloqiy, e'tiqodiy g'oyalari asos bo'lgan dramalar:* N.Shodmonovning "Nuh kemasi", Q.Rahimboyevaning "Tavba";

2. Tarixiy-biografik dramalar: *a)Vatanparvar siymolar obrazi yaratilgan dramalar b)Tarixiy yubileylar aks etgan dramalar*: N.Shodmonovning "Abu Rayhon Beruniy", "Abu Muin Nasafiy"; Iqbol Mirzoning "Usmon Nosir", To'ra Mirzoning "Usmon shoir – osmon shoir;

3. Maishiy-psixologik dramalar: *a) Urush oqibatlari; b) Oila mavzusi; s) qahramon olamining evrilishlari; d) Yoshlar mavzusi.* Q.Norqobilning "Biz ham odammiz", "Zamindan olisga ketma", M.Murodovning "Uyg'onish", Sh.Rizayevning "Diskoteka", H.Jomonqulovning "Mozordagi bozor" dramalari shu tasnifda tahlil qilindi. Har bir dramatik asar o'zining hayotiy manbalaridan kelib

[33] Жўрақулов У. Алишер Навоий "Хамса"сида хронотоп поэтикаси. – Тошкент: Турон-Икбол, 2017. – Б. 157.
[34] Каримов О. Метафора – поэтик тасаввур асоси // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2014. № 8. – Б. 190.
[35] Ризаев Ш. Маънавият манзиллари. Пьесалар ва мақолалар. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2008. – Б. 4-33.
[36] Раҳмон М. Абадий нидо // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2009. №4. – Б. 99-121.

chiqadi. Ba'zi asarlar tarixiy voqealarga asoslangan bo'lsa, boshqalari zamonaviy ijtimoiy masalalarni yoritadi. Va lekin hayot materialining eng keskin, qabariq dramatik asnolarini idrok etishi, junbishkor harakatidagi tuyg'u-kechinmalar dramatizmini aks ettirishi kabi asos mohiyatiga ko'ra drama o'zligini saqlab keladi.

Qutlibeka Rahimboyevaning "Tavba" dramatik asarida vijdon azobi, ruhiy iztirob va qiynoqlari pyesa voqealarini harakatga solib turgan, syujet dinamikasini ta'minlagan bosh omil. "So'nggi yillarda inson shaxsiga bo'lgan e'tiborning kuchayishi, insonning ruhiy iqlimlarini qalbning to'rt faslini tadqiq etish bevosita uning ongi, saviyasi, fantaziyasini ham qamrab olishni taqozo etadi"[37]. She'riy dramaning asosiy xususiyati insonning ichki (botiniy) olamiga qaratiladi va unda lirik janr elementlari ustunlik qiladi. Lirika – ichki kechinma bilan fikr uyg'unligining mahsulidir. She'riy dramaning sinkretikligi shundaki, unda real hayot shaxsning ehtirosli hislari orqali, yuraklarni larzaga soluvchi oniy lahzalar tasviri orqali kitobxon (tomoshabin)ga yetkaziladi.

"So'zlariga esa pichoq tiqdilar.
Ming so'z deng, so'z bo'ron etib o'ldiring!
...Mayli, she'rlarni ham qoldiring, zora
Ularga ham nasib qilsa yorug'lik..."[38]

Dramaturg "Tavba" dramasida adashgan shoirning ayanchli qismatida tavba detalini ko'rsatar ekan, uning o'zini o'zi so'roqlashiga jazm etishini muhitning ma'naviy parokandaligida ko'radi. Davr va qalb o'rtasidagi kechinmalar kolliziyasini shaxsning ruhiy hamda aqliy tarbiyasi takomili masalasida dramatik yechimga olib boradi. Muallif tuyg'u-kechinmalar kolliziyasidan foydalanar ekan: a) chorasizlikdan tushib qolgan qiyin sharoitlar tabiatini zohir etishga; b) ichki dunyosida kechayotgan o'zgarishlarni yuzaga keltirishga alohida e'tibor beradi. Aynan shu holatlar ichki kolliziyalar tabiatini namoyon qiladi.

To'ra Mirzoning "Usmon shoir – osmon shoir"[39] dramasi taniqli shoirimiz Usmon Nosirning hayot yo'li haqida. Bu drama jasoratli shoirning xotirasiga bag'ishlangan munosib avlodlar tuhfasidir. Dramada uch ustun bor: bu ustunlarni avvali shoirning o'zligi va erkinligi. Oila – Ona mehri. Muhit – fitnalar, yaqinlarining xiyonati.

Iqbol Mirzoning "Usmon Nosir"[40] tarixiy fojiasi zamirida yuksak maqsad sari intiluvchi alohida shaxs va undan ustun bo'lgan kuchlar o'rtasidagi ziddiyat yotadi. Qahramonga qarshi bo'lgan kuchlar boshqa odamlar, jamiyat yoki taqdir tomonidan ifodalanishi mumkin. To'ra Mirzo, Iqbol Mirzo ham Usmon Nosirni shijoatli, irodali, aqlli, ilmli, qaysar, yosh bo'lishiga qaramay, matonatli qilib tasvirlagan. Dramaturg tarixiy shaxs taqdiri misolida ijtimoiy-madaniy muhit va millat fojialarini, ziyolilar qismatini tabiiy ifodalashga intilgan.

Qo'chqor Norqobilning "Biz ham odammiz"[41] dramasi tarix voqealarining zamonaviy dramaturgiyada qanday aks etishini asoslab beradi. Asar avvalidan

---

[37] Каримов Х. Истиқлол даври адабиёти. Дарслик. – Тошкент, Yangi nashr, 2010. – Б. 75.
[38] Раҳимбоева Қ. Тавба. – Тошкент. 1991. – Б. 131.
[39] Мирзо Т. Усмон шоир – осмон шоир // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2022. № 8. – Б. 99-162.
[40] Мирзо И. Усмон Носир. // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2022. № 4. – Б. 29-58.
[41] Норқобил Қ. Биз ҳам одаммиз // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2013. №4-5. – Б. 62-98.

onaning urushga bo‘lgan nafrati va og‘riqli monologiga duch kelamiz. O‘tmish qoldirgan asoratlar asar qahramoni Butunvoy qiyofasida aks etgan. Mazkur mulohaza zamonaviy mavzudagi dramatik asarlar uchun ham katta adabiy-estetik ahamiyatga ega. Xususan, “Biz ham odammiz”da fikri qahramonlarning zohiriy belgilari ularning xarakter-xususiyatlarini, fe’li-faoliyatlarini ham asoslaydi. Pyesa qahramoni Butunvoy kuchli zarba va o‘ta og‘ir psixologik holatlarni boshidan o‘tkazganligi bois to‘g‘ri gapira olmaydi va vaqti-vaqti bilan o‘zidan ketib qolish kasaliga chalinadi. Asarda “Majruh inson” qiyofasi jonlanadi. Afg‘on urushida qatnashishi Butunvoy tabiatida, kelajakda sevgilisi Sora bilan turmush qurish orzulariga jiddiy evrilishlar sodir etadi. Butunvoy Afg‘on urushidan majruh holda qaytadi. Bolasining kamolini ko‘rolmagan insonlar qiyofasini Jayron bobo (cho‘pon) Gulsum momo obrazida xarakterlaydi. Har bir detal, ko‘rimsizdek tuyulgan tafsilot dramatik harakat izchilligiga, syujet rivojiga xizmat qilgan. Muallif insonning chin muhabbatga sodiqlik tushunchalarini Sora obrazi orqali tasvirlaydi. Soraning ichki kechinmalari jamiyat qonun-qoidalariga zid kelishidan qat’i nazar u vafo timsoli bo‘lib tasvirlanadi. Bir qarashda asar maishiy mazmun kasb etganday tuyuladi. Aslida urush keltirib chiqargan bugunning fojialari aks etgan. Urush davrining dard-alamlari va fojiaviy qismatlari insonlarni hushyorlikka, tinchlikka, avlodlar taqdirini o‘ylashga chorlaydi. Asarning yutug‘i esa, barcha zamonlarda, barcha millatlarda qadrlanuvchi, hayotning asosiy mohiyati sanaluvchi e’tiqod, iymon, halollik tushunchalarining ifodalanganidadir. Pyesaning gumanistik ruhi ham ana shu sahnalarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Husnillo Jomonqulovning “Mozordagi bozor”[42] dramasida muallif konsepsiyasi insonlarning qanchalik tubanlashib borishini bir mozordagi voqealar rivojida tipiklashtiradi. Dramada olib chiqilgan mavzu insonlar o‘rtasidagi riyokorlik, xo‘jako‘rsinlik inson tabiatidagi xastalikdir. Birinchi sahna Adamning (Odam) o‘z xatosi tufayli yerga tushishi va go‘rkov bilan suhbati orqali boshlanadi. Muallif bu muammoni asar markaziga olib chiqishida o‘z oliy maqsadini bir tizimda abadiy qonuniyatlar asosida amalga oshirgan. “Mozordagi bozor” pyesasida bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri – turli kasb egalarining xarakter xususiyatlari, ularning ruhiy dunyosini ochish dramaturgning diqqat markazida turadi. Xususan, xoh tarixiy, xoh zamonaviy mavzuda bo‘lsin, davrning muhim ma`naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy masalalari dramaturgning bu asarida o‘z bo‘y-bastini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ikkinchi ko‘rinishda muallif bir-biridan o‘zarga kelishib, mozorni ham bozorga aylantirgan insonlar obrazini asarda tipiklashtirib, badiiy butunlikni tashkil qilgan. Uchinchi ko‘rinishda kibrga berilgan Shoir Mashhuriy obrazi tipiklashtiriladi. Bu obrazni eng tubanlashgan cho‘qqisi shundaki, u qabristonga ham o‘z unvonlarini taqib boradi. Jamiyatda o‘z o‘rnini yuqori bilgan manman insonlar obraziga Mashhuriy yaxshigina namuna bo‘la oladi.

Muallif Barnobek obraziga o‘zligini anglab yetmagan inson qiyofasini yuklaydi. Muallifning fikriy topilmalaridan ham anglashimiz mumkinki, ismi ham ayollarga mos Barnobek deb nomlangani obrazga nisbatan konkretroq xulosalarni berishda o‘rinli hisoblanadi. Muallif yaratgan Barnobek va Mashhuriy obrazlarida

[42] Ўзбек драматургияси уфқлари. Пьесалар тўплами. – Тошкент: Адабиёт, 2020. – Б. 397-418.

bir paytning o‘zida ikki holat – komiklik va fojiaviylik namoyon bo‘ladi. Qabristonga shartnoma qilishga borgan Barnobekning ko‘rinishi kulgili bo‘lsa, ham uning ayollarga xos tabiati haqiqiy fojiaviyligini ko‘rsatadi. Shuning barobarida Mashhuriy shoir ham qabristonga ordenlarda boradigan inson qiyofasida ko‘rinsada, bu Mashhuriyning o‘zi bilmagan fojiasi ekanligini ta’kidlaydi. Qabristonga cho‘kkan og‘ir sukunat Egamberdi go‘rkovning o‘zi bu dunyodan o‘tib joysiz qolgan Fasodbek, Mashhuriy, Barnobek, Oltivoy, Ishratqullarning taqdiri fojiaga aylanayotganligini ko‘rsatadi. Adib xarakterlarni, personajlarni turli ruhiy holatda tasvirlaydi, ularni har tomonlama kuzatadi, ma’lum masalaga bildirilgan munosabat asar davomida ruhiy taranglikni yuzaga keltiradi. Qahramonlar goh komizm, goh dramatizm, goh fojiaviylik holati bilan o‘rin almashadi. Borliqda yaralgan inson o‘z pozitsiyasida qolishi kerak. Vujudi qanday yaralgan bo‘lsa, o‘shanday. Bo‘lmasa olam qonuniyati buziladi. Buzilgan qoidalar esa qayta tiklanmaydi.

Shuhrat Rizayevning “Diskoteka”[43] dramasi zamonaviy yoshlar hayotidan olingan. Drama ikki qism, yetti ko‘rinishdan iborat. Muallif bu sahna ko‘rinishida yoshlar hayotini, tadbirkorlik masalasini, yoshlarning mustaqil va erkin hayotini, jamiyatdagi o‘rni, axloqiy-maishiy masalalarga munosabatlarini Oybek va Sabohat obrazlarida tasvirlab bergan. Zamonga hamnafaslik, zamonning ma’naviy-intellektual ehtiyojlari va talablari bilan birga yashash, zamon yo‘riqlari taqozo etgan aqliy tarbiya masalalari dramaturglarning xayolini band etgan. Ilmiy-ijodiy izlanishlarining o‘zak mag‘zini tashkil etgan. “Biz ham odammiz”, “Tavba” singari badiiy barkamol dramatik asarlardan boshlab ijodiy izlanishlarining so‘nggilaridan bo‘lgan “Mozordagi bozor”, “Diskoteka” pyesalarida inson obrazi hayotning turli-tuman tashvishlari fonida badiiy-estetik talqin qilingan.

Dissertatsiyaning so‘nggi bobi **“Mustaqillik davri dramalarning syujet kompozitsion xususiyatlari”** deb nomlanadi. 3.1§da *“Dramatik syujetlarning badiiy-tarixiy omillari”* masalasi tadqiq etilgan. O‘zbek adabiyoti tarixida ko‘p uchraydigan poetik obrazlardan bir qismi tarixiy shaxslar bo‘lib, ular xalq ijodiga, yozma adabiyotga xos obraz sifatida keltirilgan. Olim Sh.Turdimov ta’kidlab o‘tganidek, ““alplik” tizimining asosida ham miflar va shomonlik an’analari emas, birinchi navbatda, ilohiy (islomiy) kitoblarda kelgan real tarixiy syujetlar, Payg‘ambarlar hayotidan hikoya qiluvchi axborotlar, ular bilan bog‘liq motivlar va detallar turadi”[44]. Bu tezis bugungi kun dramatik asarlarida sintez jarayonida insoniyatga yangicha tamoyillarda tasvirlab berilmoqda. Qur’oniy ma’lumot asosida yaratilgan Nafas Shodmonovning “Nuh kemasi” dramatik asarida mazmuniy voqea-hodisalar murakkab turli xarakterlarni yaratib, ijtimoiy-siyosiy kurash (Akaning boshliq bo‘lish niyati va “shifo qo‘l”li ukasini rad etishi) voqealar silsilasini ramziylashtirib, turli holat, vaziyatlarning ta’sirchanligini oshirgan va qomusiy kompozitsiyani yuzaga chiqargan. Nafas Shodmonovning “Qobil ila Hobil”[45] dramasida. 27-32 oyatlarda) yozuvchi Qur’oni Karimning “Moida” surasidagi Qobil ila Hobil qissasini asar syujetining asosi qilib oladi. Asarga axloqiy-tarbiyaviy ma’no

[43] Ризаев Ш. Дискотека // Ёшлик. – Тошкент, 2007. № 5. – Б. 28-47.
[44] Турдимов Ш. Эпос сюжетидаги таянч мотивлар тадқиқи ва алплик тизими. // “Гўрўғли” достонларининг генезиси ва тадрижий босқичлари китобида. – Тошкент: Фан, 2011, – Б. 11-39.
[45] Шодмонов Н. Сайланма. – Тошкент: Adabiyot, 2023. – Б. 14.

yuklaydi. Qobil ila Hobil o'rtasidagi adovat ularning bir-biriga bo'lgan mehridan ustun keladi. Qobil shayton, ya'ni Yelpikning gapiga kirib, o'z ukasining qotiliga aylanadi. Qobilning taqdir hukmiga norozilig bilan boshlangan kelishmovchilik qon to'kish bilan yakunlanadi. Odam farzandlari dastlab bir o'g'il va bir qizdan egiz tug'ilishgan. Ilk shariat qoidalarida odamzodning ko'payishi uchun yigitlarga o'z egizlaridan boshqa qizlarga uylanishiga ruxsat berilgan. Qobil esa bu hukmni qabul qila olmaydi va o'z egizini emas, Hobilning egizi Abudani olishni xohlaydi. Yozuvchi konfliktni keltirib chiqargan mavzu ko'lamini va yukini yaxshigina his qilgan va markazga shu qissani asos qilib ko'rsatgan. Nafas Shodmonov bu dramada ikkita qissani jam qilib, o'tkir dramatik yechimga olib chiqqan. Ya'ni birinchi qissa Odam alayhissalom haqidagi qissa, ikkinchisi esa Qobil va Hobil qissasidir. Qur'ondagi shar'iy ahkom bilan qissalarning uyg'unligida insonga yuborilgan sinovga ishora kuzatiladi. Ana shu sinov yo'lini o'tkir dramatik vaziyatlarda tasvirlab bergan muallif yangicha qarashlarda insoniyatning bir Ota va bir Onadan yaralganini va undan to'rt farzand dunyoga kelganligini, ular bir-biri bilan tug'ilgan farzandlar bilan nikoh bog'lamasligini, bu samoviy qonuniyatni avlodlarga yetkazish maqsadida yangicha nigoh tashlandi. Banibashar qilgan har bir xato ishi uchun albatta jazo muqarrarligini anglash uchun muallif shu qissadan oqilona foydalangan. Insoniyatni ogoh etish, hidoyatga chorlash maqsadida mana shu qissalar zaminida haqiqat teranlashadi. Asar ibtidosida tarixiylik tamoyili (inson yaralishi Odam Ato va Momo Havo avlodlari: Qobil ila Hobil, Iqlima va Abuda) ustun tursa-da, bizga ma'lum bo'lgan udumning ibtidosi (qurbonlik qilish)ga ishoralarni ham ta'kidlab o'tish esa ilohiy haqiqatni tasdiqlaydi. Kompozitsion sathda savol-javob usulida Qobil va Yelpikning dialogi diniy motiv sifatida kiritilib, isyonkor Iblis tuzog'iga tushib borayotgan Inson farzandi Qobilning suhbati kontrast usulda tasvirlanadi.

Muallif qisqa dialoglar vositasida ilohiy ko'rsatmani ilk nayrang jazosi (Havoning taqiqlangan mevani yeyishi), tavba maqbuli (Odam Ato va Momo Havoning jannatdan haydalishi), zamindagi farzandlar nizosi (Qobil ila Hobil ziddiyati)ni bosqichma-bosqich yoritadi. Natijada voqealar rivojida obrazlilik, ifodaviylik kuzatiladi. Dramaturg tasvirlagan Qobil – sinovdagi inson. Hayoti davomida turli qiyinchiliklar bilan sinaldi. Ota-onasiga qarshi chiqdi, bu hayotidagi nohaqliklarda ularni aybladi, singlisini (Abudani) juda ko'p bora ranjitib qo'ydi. Asardagi dramatik vaziyat – o'z inisini o'ldirib, insoniyat olamida ilk qotilga aylandi. Shu kabi gunoh ishlarni qilib, oxirida ma'rifat yo'lini topdi. Bu yo'l tavba yo'lidir.

Qur'oniy qissalar jam bo'lgan drama umumiy ma'noda iymon halovatini, kibr tushunchasini, bu dunyodagi go'zallik insonlar ko'zini ko'r qilib (Iqlimaning go'zalligi), faqatgina bu dunyo ziynati, u dunyo qiymatini anglashda yangi ko'rinish kasb eta oldi. Muallif badiiy konsepsiyasining insoniy munosabat tahlilida ezgulik va adolatlilik tamoyili ustunlikka chiqdi.

Ushbu bobning 3.2§ *"Hozirgi dramalarda tezis–antitezis–sintez tizimi"* tadqiqiga bag'ishlangan. Bugungi kundagi dramalarni tashkil etuvchi asos ularni kompozitsion bog'lab turuvchi harakatdagi tizim *tezis–antitezis–sintez* funksiyasidir. Ya'ni ularda dastlab muayyan dramatik muammo o'rtaga tashlanib, so'ng inkor etuvchi fikr tashlanadi, har ikkisining umumlashmasidan esa sintez-xulosa chiqariladi. Ayni shu holat bugungi kun dramasiga ham xos. Bugungi kun

dramalariga xos pafos muallif tasvirlashni maqsad qilgan voqea va hodisaning xarakterini, mavzusi, qahramonlar ichki olami, badiiy niyati bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yuqoridagi keltirilgan adabiy-tarixiy omillar bilan ham aloqador hisoblanadi. “Borliq (tezis), hech narsa (antitezis), unda shakllanish esa (sintezdir)”[46]. Adabiyotshunos Suvon Meliyev o‘zining “Mushtarak uchlik” maqolasida “Trinar (uchlik) tipologiyada, binar tipologiyada ko‘ringan jihatlar, mushtarakliklar ochilishi, hatto paydo bo‘lishi mumkin”[47], – degan qat’iy xulosalarni aytib o‘tadi. Olim bu uchlik tizimda asar ma’nosi to‘lig‘icha ochilishini hatto yangi so‘z ayta olishiga guvohlik bermoqda.

Keyingi tahlilga tortilgan drama Nafas Shodmonovning “Abu Muin Nasafiy”[48] dramasi. Abu Mansur Moturidiy maktabining atoqli namoyandasi Abu Muin Nasafiy kalom ilmida yetuk olim sifatida salaf va xalaf o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajargan va Moturidiya yo‘nalishini rivoj topishida ulkan xizmatlar qilgan. Drama 2 parda, 18 ko‘rinishdan tarkib topgan. Birinchi parda (6 ko‘rinish) Abu Muinning Nasafda kechgan hayotidan, ikkinchi parda (12 ko‘rinish) Samarqandga ko‘chib borishidan Buxoroga ketguniga qadar o‘tgan hayotidan olingan dramatik epizodlardan iborat. Asar xronotopi musulmon o‘lkasining ikki qadimiy va islom markazi o‘laroq sharaflangan shaharlari hayotini aks ettirgan. Syujetning ayni tarzda tuzilishi asar davomida keladigan dramatik konfliktlarga badiiy-mantiqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ilk parda, ilk ko‘rinish islomdagi aql va naql masalasida Xoris, Jovid, Hamdamlar o‘rtasidagi bahs bilan boshlanadi. Bahs bir qarashda shar’iy mansab egalari, ulamolar o‘rtasida kechgandek tasavvur bersa-da, mohiyatiga ko‘ra mazhablar, aqidalar, bir so‘z bilan, Haq va botil aro kechgani asar so‘nggiga qadar dramatik talqinda ochib boradi. Nazariy jihatdan asar uchun boshlama-tezis vazifasini o‘taydi. Fitnachilarning maqsadi aniq bo‘ldi. Endi unga qarshi antitezis, ya’ni Nasafiyning mustahkam e’tiqodi masalasi turadi. Bunda muallif qahramonni ta’rifini berishda qadimgi an’analar uslubidan foydalanib singlisi Zaynab obrazini olib kiradi. Drama tezisida ifodalangan obraz xarakteri antitezis va sintez qismida asoslanadi. O‘z fitnalarini amalga oshirish maqsadida Nasafiyning yori Oybalanddan foydalanib, unga tuhmat yog‘diradi. Bu tuhmatdan chiqib ketolmagan Oybaland o‘z jonini Nafasiyning or-nomusi uchun qurbon qiladi. Drama asosida yotuvchi konfliktning yechimi va asar tugunining mantiqiy yakuni fitnachilar qo‘lga olinib, hukm qilinganda Nafasiy ularni kechiradi va qozixonaga borib o‘z jazosini olishini aytishi bilan yakun topadi. Dramaturg Nasafiy shaxsiyatida halimlik fazilatini ko‘rsatish orqali kechirimli inson qiyofasini yaratadi. Bu yechim ijodkorning dunyoqarashi, e’tiqodiga ham ishora qiladi. Zotan, yechimda (sintezda) adolat nafislik bilan ifoda etilib, falsafiy mazmun teranlashtirilgan.

Asar bosh qahramoni Nasafiy hayotida qanchalik og‘ir sinovlar bo‘lmasin, o‘z e’tiqodini pok saqlab, umrining oxirigacha Haq yo‘lida sobit turadi. Drama bosh qahramoni bo‘lgan Abu Muin Nasafiy tom ma’noda murakkab tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy, maishiy-biografik vaziyatlar markazida tasvirlanadi. Farzandsizlikdan kuyinib, nola chekib, har qanday fitna asirasiga aylangan

[46] Овсянников М.Ф. Гегель. – М.: Мысль, 1971. – С. 74-76.
[47] Мели С. Муштарак учликлар. / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2014. № 16.
[48] Шодмонов Н. Жавоҳирот драмалар тўплами. – Тошкент: Адабиёт, 2023. – Б. 107.

Nasafiyning ayoli Oybaland Nasafiyga qarshi chiqqan dushmanlarining qo'lida qurbon bo'ladi.

Muallif asar so'ngiga qadar o'z qahramonini turli dramatik vaziyatlarga tashlaydi: ilmiy bahslar, savol-javoblar, hokimiyat, ulamolar muhiti, oilaviy mojarolar, raqiblar fitnasi va h.k. Ammo Abu Muin bularning barchasidan toza qalb bilan chiqadi. Qahramon xarakteri, harakat va so'zlarining o'zi bunday pokizalikka asos bo'ladi. Muhimi, o'quvchi qahramonning biror harakati yoki so'zida soxta ideallashtiruv, sun'iylikni ko'rmaydi. Muallif konsepsiyasiga ko'ra Abu Muin Nasafiy faoliyati, buyuk shaxsiyatining ortida Qur'on va sunnatga qat'iy amal qilish turadiki, bu konsepsiya tom ma'noda ishonarlidir. Asar syujetida, Nasafiyga qaratilgan fitna urug'lari (tezis), unga qarshi turgan e'tiqod masalasi (antitezis) va yechimiga tomon o'sib kelgan xulosa ma'rifatli shaxs fenomeni (sintez) tizimini tashkil etadi. "Tarixiy qahramonlarning Vatan tarixida, millat taqdirida tutgan o'rnini belgilash; milliy o'zlikni anglashga bo'lgan intilish, tarixiy xotiradan xulosa chiqarishga chorlash xususiyatlari yangi davr tarixiy dramalarining o'ziga xosligini belgilab berdi"[49].

"Abu Rayhon Beruniy"[50] nomli dramatik asarda Beruniy shaxsiyati, uning dramatik psixologiyasi va botiniy olamiga ham alohida urg'u berilgan. Bu badiiy konsepsiyani amalga oshirishda muallif "Zanjirband qiz" to'qima obrazidan oqilona foydalangan. Asarning tezis – dialogi o'z shogirdiga aytgan dialog matnida anglashiladi.

"Beruniy: Abdussamad, jon birodarim,
Biz dunyoga nega kelganmiz?"[51]

Drama syujeti Beruniy obrazining murakkab va sirlilik tamoyilini yuzaga keltirgan. Beruniy shaxsiyatini odilona yoritib bergan muallif zidlik (antitezis) tizimini Zaydon obraziga yuklaydi. Beruniy shoh saltanatida qancha ko'p sinovlarga yechim topib, shohning e'tiborini qozonadi. Muallif bu obrazga olim shaxsiyati ostida iymonli, diyonatli inson obrazini tasvirlaydi. Umrining oxirgi daqiqalaridagi suhbat dialogi ham asar sintez tizimini tashkil qilgan.

Muallif yaratgan qahramonlar ilmkorlik salohiyati yuqori, olam va odamni talqin etishda faylasufona, dunyoqarashi va didi yuqori qahramonlar deya baholaymiz. Olim A.Soliyev "O'zbek dramaturgiyasida inson talqini" mavzusidagi tadqiqot ishida "Ma'lumki, o'tgan asrning 70-80 yillari o'zbek she'riyati va nasrida insonni tahlil va talqin etishda ancha yuqori natijalarga erishdi. Biroq o'zbek dramaturgiyasida bu masala ko'ngildagidek yechimini topmagan"[52], – deya bu mavzuga urg'u bergan edi. Olimning ilmiy fikrlariga javoban Nasafiy va Beruniy obrazlari inson fazilatlarini yoritishda o'zbek dramaturgiyasini yangi bosqichga qadam qo'yganligini ko'rsatadi. Abu Rayhon Beruniy dramasida ta'kidlangan uch ilmning o'rni muhim hukmdorlarga: "...biri, albat oxirat ilmi, ikkinchisi, javohir ilmi, uchinchisi harbga doir tadbirlar ilmi. Beruniyda bu ilmlarning bari mujassam".

---

[49] Якубов Б. Замонавий ўзбек драматургияси ва унинг саҳнавий талқини (1991-2016 йй.). Санъат. фан. б. фалс. док... дисс. автореф. – Тошкент: 2019. – Б. 17-19.

[50] Шодмонов Н. Жавоҳирот драмалар тўплами. – Тошкент: Адабиёт, 2023. – Б. 15.

[51] Шодмонов Н. Жавоҳирот драмалар тўплами. – Тошкент: Адабиёт, 2023. – Б. 19.

[52] Солиев А. Ўзбек драматургиясида инсон талқини. Филол. фан. д-ри. (DSc) ... дисс. – Тошкент: 2012. – Б. 26.

Qahramon tilidan aytilgan bu so‘zlar Beruniy xarakterini yorituvchi (tezis) ilm yo‘lidagi fidoyi inson sifatida talqin qilingan.

XULOSALAR

1. Inson va borliq mavjudligi qonuniyati to‘la ifodalangan mukammal manba muqaddas Qur’oni Karim oyatlari va Hadisi shariflar bo‘lib, ular badiiy adabiyot oziqlangan o‘zak manba sifatida e’tirof etiladi. Qur’oni Karim va Hadisi shariflarda inson va borliq qonuniyati quyidagi konseptual tamoyillarga asoslanadi: a) Olloh yaratgan xilqat: b) Borliqdagi yaratiqlar mo‘jizasi. Inson va borliq konsepsiyasi o‘rganilib, drama qahramonlarining ma’naviy-axloqiy dunyosi tahlil etildi. Mustaqillik davri dramaturgiyasida tuyg‘ular kolliziyasi va fikr-kechinmalaridagi insonning botiniy ko‘rinishlari aniqlandi. Bu esa, asarning poetik ifodasida aks etgan.

2. Yunon mutafakkirlari Suqrot, Aflotun va Arastuning nazariy qarashlarida insonning ijtimoiy davrdagi qiyofasini aks ettirishning tarixiy asoslari yotadi. O‘rta asrlardan boshlab Sharq adabiyotshunosligida inson va borliq tushunchalari chuqur o‘rganilgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy kabi allomalarimiz asarlarida insonning ma’naviy va ruhiy olamiga alohida e’tibor qaratilgan.

3. Payg‘ambarlar obrazlari ideal shaxs sifatida ko‘rsatiladi. Ularning hayoti va ta’limoti insoniyat uchun namuna sifatida qabul qilinadi. Bugungi kunda dramatik asarlar syujetida bu obrazlarning tasvirlanishi muhim va dramatik asar kontekstida muallif niyatini e’tiqodiy g‘oyalar negizida sintezlashganini ko‘rsatish mumkin. Shu o‘rinda Nafas Shodmonovning “Nuh kemasi” dramasini dramaturg muqaddas manba Qur’oni Karim syujetiga xos o‘tkir dramatik kontrastda tasvirlanganiga e’tibor qaratildi. “Iskandar”, “Abadiy nido” dramatik asarlari ham ana shu mezondan chetga chiqmaydi.

4. Bugungi kun dramaturgiyasi inson obrazini tasvirlashda boshqa janrda yaratilgan asarlardagi inson obrazidan keskin farq qiladi. Bunda, asosan, janrning imkoniyati, dramaturgning ijodiy qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Dramadagi inson obrazining kechinmalari, asliyatini bilishi, evrilish harakatlari, irodasi, e’tiqodi, borliqdagi o‘rni va vazifalarini anglashi, muammolarga yechim qidirishi boshqa janr asarlaridagiga nisbatan tez harakatga keltiriladi.

5. Mustaqillik davrida yaratilgan dramalarda o‘zbek xalqining tarixiy voqealari va tarixiy shaxslar obrazini badiiy tarzda tasvirlashga e’tibor qaratilgan. Bu asarlar milliy istiqlol ildizlarini ochish, milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jihatdan Iqbol Mirzoning “Usmon Nosir” va To‘ra Mirzoning “Usmon shoir – osmon shoir”, Shuhrat Rizayevning “Iskandar” kabi asarlari boy material bera oladi.

6. Dramaturgiyaga yangi zamon ruhi kirib kelishi, asarlarning mazmuni va qahramon olamining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Tarixiy qahramonlik, ma’rifiy-madaniy va zamonaviy mavzular, dramaturglarning zamon va qahramon konsepsiyasini yangilashga olib keldi. Bu jarayonning asosiy tamoyili shundaki, hayotdagi o‘zgarishlar yangi adabiy qahramonlarni yuzaga keltiradi va ularning psixologiyasidagi sifat o‘zgarishlari ijtimoiy voqelik ta’sirida shakllanadi. Umuman,

o‘z hayoti va idealini mustaqillikning iqtisodiy asoslarini mustahkamlash ishiga safarbar etayotgan qahramonlarni komillikka intilayotgan jamiyatimiz a’zolari qiyofasida gavdalantirish dramaturgiyaning yutuqlaridan biridir.

7. Zamonaviy dramaturgiyada urush davri oqibatlari tufayli yurtparvarlik, qahramonlikni madh etuvchi asarlarning o‘ziga xos tizimi yaratildi. Jumladan, “Biz ham odammiz” dramasidagi Butunvoyning olgan jarohati o‘chmas iz qoldirdi. Urush odamlarining qalbini tasvirlash kartinasi Gulsum momo obrazi orqali yuzaga chiqarildi.

8. Zamonaviy dramaturgiya ijtimoiy, siyosiy va madaniy masalalarni yoritishga qaratilgan. Bu esa dramaturglarning o‘z qahramonlarini zamonaviy voqealar va muammolar bilan bog‘lashiga imkon beradi. Xususan, “Uyg‘onish” dramasida Olim Salimovichning mudroq qalbi uyg‘ongan, vijdonli inson qiyofasi asar syujeti davomida dramatik harakatga keltirilgan. “Diskoteka” dramasida yoshlar hayoti mavzu qilib tanlangan va ularning orzu-umidlari, istak xohishlari to‘laqonli ochib berilgan. “Biz ham odammiz” dramasida urush va inson qalbi, iymon, vijdon muammolari, urush – shaxs – jamiyat fojiasi o‘zaro uyg‘un holda tasvir etilgan. Olamni va odamni badiiy ifoda etishda bashariy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega. Dramaturgiya hayot manzaralari, inson erki, vijdon va iymon kabi masalalarni o‘rganishga qaratilgan, bu esa estetik prinsipning o‘ziga xosligini belgilaydi.

9. Mustaqillik davri dramaturgiyasida inson va borliq mohiyatini badiiy jihatdan o‘rganishda hayotiy voqealar bilan bog‘lash asosiy o‘rin tutadi. Ma’lumki, inson o‘z davridan, yashayotgan zamonasidan ayri tushishi mumkin emas. U zamonasining faol farzandi bo‘lishi bilan birga, yangi hayotni bunyod etuvchi, voqelikka, jamiyat tartiblariga ta’sir ko‘rsatuvchi jiddiy ijtimoiy omil. Shunga monand, hayotdagi, voqelikdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy o‘zgarishlar drama janri tabiatiga ham bir qator struktura o‘zgarishlarini olib kirdi.

10. Pyesalarni badiiy-estetik izlanishlar misolida kuzatadigan bo‘lsak, lirik-psixologik (Q.Rahimboyevaning “Tavba”), maishiy-axloqiy (“Biz ham odammiz”, M.Murodovning “Uyg‘onish”), tarixiy-biografik dramalar (N.Shodmonov “Abu Rayhon Beruniy”, “Abu Muin Nasafiy”, Iqbol Mirzo “Usmon Nosir”, To‘ra Mirzo “Usmon shoir – osmon shoir”) janr ko‘rinishlarini yuzaga keltirganligida, ularning qahramonlari xarakter-xususiyatlarida, davrga, voqelikka bo‘lgan nuqtayi nazarida, syujet va kompozitsion qurilishda kolliziya tusini olgan qahramonlar ruhiyatini gavdalantirishdagi estetik prinsiplarida ochiq namoyon bo‘ladi. Va lekin, hayot materialining eng keskin, qabariq dramatik asnolarini idrok etishi, junbishkor harakatidagi tuyg‘u-kechinmalar dramatizmini aks ettirishi kabi asos mohiyatiga ko‘ra drama o‘zligini saqlab keladi.

11. Mustaqillik davri o‘zbek dramasi mamlakat va xalq hayotidagi ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy masalalarga, voqelikdagi, inson qalbi va tafakkuridagi o‘zgarishlarga hozirjavob turganligini ko‘ramiz. Yangi-yangi mavzularga murojaat qilish natijasida dramaturgiyaga o‘z fe’l-atvori, xarakteriga ega bo‘lgan qahramonlar kirib kelmoqda. Bularning hammasi mustaqillik davri dramaturgiyasida yangi mavzular, qahramonlar, adabiy shakllar, konflikt borasida sifat o‘zgarishlarini keltirib chiqarmoqda. Demak, o‘zbek dramasi doimiy izlanishda, zamon bilan birga rivojlanib bormoqda.

SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES AT ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

QUZIBOEVA LOLAKHON SAIDRASUL QIZI

INTERPRETATION OF THE PROBLEM OF HUMAN AND BEING IN UZBEK DRAMAS OF THE INDEPENDENCE PERIOD

10.00.02 – Uzbek Literature (20th century Uzbek literature and the current literary process)

DISSERTATION ABSTRACT OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) IN PHILOLOGICAL SCIENCES

Tashkent – 2025

The theme of dissertation for doctor of philosophy (PhD) was registered by the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number № B2022.2PhDFil2474.

The dissertation has been carried out at the Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) is placed on the website of the Scientific Council (www.tsuull.uz) and Information-educational portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Juraqulov Uzoq Haydarovich** Doctor of Philological Sciences, Professor
Official opponents:	**Musurmonov Erkin Rabbimovich** Doctor of Philological Sciences, Professor
	Burkhonova Feruza Abdurazzoqovna Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences, Associate Professor
Leading organization:	**Gulistan State University**

The defense of dissertation will take place on "17" april 2025 at 16⁰⁰ at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. (Address: Yusuf Khos Hajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city, 100100. Tel.: (99871) 281-42-44); fax: (99871) 281-42-44); fax: (99871) 281-12-44). (www.tsuull.uz).

The doctoral dissertation can be reviewed in the Information-Resource Centre of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (registration under №339). (Address: 100100, Yusuf Khos Hajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city. Phone number: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, fax: (99871) 281-12-44 (www.tsuull.uz).

The abstract of dissertation is distributed on "3" april 2025.

(Protocol at the register № 1 of "3" april 2025).

H.A. Dadaboev
Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

O.U.Pardaev
Scientific Secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

N.A. Jabborov
Chairman of the Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (abstract of the PhD thesis)

The topicality of the dissertation. The problem of man and being, which arose in a certain period of world literary studies, in particular in dramaturgy, requires the need to solve new views in the field of philology. Artistic conditionality, artistic-aesthetic concept, artistic-psychological perception of the essence of the image, tragedy and the expression of the tragic hero are among the problems that need to be studied holistically. Finding solutions to the problems of man and being, depicting the inner and outer world of the human figure in the social environment, in general, illuminating the value, role and tasks of man are among the main topics of today's dramaturgy.

In world literary studies, it is an important issue to approach the interpretation of the problem of man and being in dramatic works as a unique literary and aesthetic phenomenon and to reveal the artistic skill of the playwright. It is necessary to analyze the system of images discovered in the spiritual and mental world of the playwright in connection with the relationship between man and being. The most important aspect of this is the increased attention paid to the wide-ranging observation of the problems of character depiction, style, artistic conditionality, literary influence, tradition and creative originality in the poetics of dramatic works. Accordingly, in recent years, the study of the poetics of dramatic works and the artistic interpretation of the priority ideas in them have become of urgent importance.

The Uzbek dramaturgy of the independence period clearly defined its great socio-political, ideological-ideological and educational-moral position from the very first steps. The dramatic works of Qutlibeka Rahimboyeva, Shukhrat Rizaev, Usmon Azim, Iqbol Mirzo, Nafas Shodmonov, Muhammad Rahmon, Husnillo Jomonqulov, Qochqor Norqobil, Mengliboy Murodov, who came to the attention of the scientific and literary community with certain creative experiences in the modern literary process of the years of independence, in the context of the era, environment, world and human unity, and their scientific assessment are one of the tasks facing literary criticism. After all, "To more fully satisfy the cultural and aesthetic needs of the population, to develop theater, music, fine arts and other types of art, to create works that reflect the brightest pages of the history and current life of our people, the free democratic development of our country"[1] and to study them is considered the most important task facing our society. "In epics, the event dominates, in drama, the person. The hero in epics is the event; the hero in drama is the human person"[2] therefore, studying the problems of interpreting the human being and the existence that encompasses him is one of the urgent tasks of literary studies.

Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 dated February 28, 2022 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026", No. PF-4947 dated February 7, 2017 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan", No. PQ-2995 dated May 24, 2017 "On measures to further improve the system of preservation, research and

[1] Мирзиёев Ш.М. "Маъданият ва спорт соҳасида бошқарув тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2017. 4 август.
[2] Белинский В. Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1955. – Б. 143.

promotion of ancient written sources", No. PQ-3271 dated September 13, 2017 "On a comprehensive program of measures to develop the system of publishing and distributing book products, increase and promote the culture of reading and reading", Resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 dated February 28, 2022 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan", No. PQ-4947 dated February 7, 2017 "On measures to further improve the system of preservation, research and promotion of ancient written sources", No. PQ-3271 dated September 13, 2017 "On the Program of Comprehensive Measures to Develop the System of Publishing and Distribution of Book Products, Increase and Promote the Culture of Book Reading and Reading", No. PQ-4947 dated February 7, 2017 "On the Development of the System of Publishing and Distribution of Book Products, Increase and Promote the Culture of Reading", No. PQ-4947 dated February 7, 2017 "On the Development of the System of Publishing and Distribution of Book Products This dissertation research will serve to a certain extent in implementing the tasks set out in his report at a meeting with representatives of the creative intelligentsia of Uzbekistan on August 3, his instructions on increasing the influence of literature during his visit to the Alley of Writers in Tashkent on May 20, 2020, and other regulatory and legal documents related to this activity.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. The dissertation was carried out within the framework of priority focus of the development of science and technology of the republic I. "Formation of the system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state and the ways of their implementation".

The degree to which the problem has been studied. Views on the poetics of dramatic works have an ancient history. The theory of genre was studied in the works of Plato, Aristotle, Farabi, Boileau, Hegel, V.G.Belinsky, L.I.Timofeev. It was studied by Sophocles, Euripides, Anicist,[3] and other thinkers. Over time, scientific and theoretical views on drama and its leading principles began to be updated. In the literary criticism of the European Renaissance, the contribution of philosophers such as Brecht, Diderot, Schiller, Lessing, E.Bentley[4] to the theory of dramatic art and the development of the genre is incomparable. Since the 1990s, Russian literary scholars such as V.Y.Khalizev and N. D. Tamarchenko [5]have begun to take a somewhat

[3] Полное собрание творений Платона в 15 т. Под ред. С.А. Жебелева, Л.П. Карсавина, Э.Л. Радлова. – Л.: Академия, 1922-1929. Т.1,4,5; Арасту. Поэтика (Нафис санъат хакида). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004; Форобий. Рисолалар. – Тошкент, 1975; Буало Н. Поэтическое искусство. –М., 1957; Гегель Г.В. Лекции по эстетики. Перевод И.С Попова. Сочинения. Том XIV. – М.: Издательство социально-экономическая литературы, 1958; Белинский В. Г. О драме и театре. В двух томах. – М.: Искусство, 1983; Тимофеев Л.И. Теория литературы. Основы науки о литературе. Учпедгиз, 1948; Софокл. Драмы. В переводе Ф.Ф. Зелинского. – М.: Наука, 1990; Еврипид. Трагедии. В двух томах. – М.: Художественная литература, 1969; Аникст А. Теория драмы от Аристотеля до Лессинга. – М.: Наука, 1967.

[4] Брехт. Б. Пьесы, статьи, высказывания. В пяти томах. Т. 5. – М., 1965; Дидро Д. Собрание сочинение. – М.: Л.: Наука, т. 5; Шиллер. Ф. Собрание сочинение. – М., 1957. – С. 252; Лессинг Г. Э. Гамбургская драматургия. – М., 1883; Бентли. Э. Жизнь драмы. – М.: Искусство, 1978.

[5] Хализев В. Е. Теория литературы: учебник для студентов высших учебных заведений; В.Е. Хализев. – 5-е изд., испр. И доп. – М.: Издательский центр Академия, 2009. – 432 с.; Теория литературы. В 2 т. Под ред. Тамарченко Н.Д (alleng.org). – М.: 2004, Т.1-512 с.; Т. 2. – 368 с.

different approach to the theory of genres. Of course, research works devoted to the theoretical problems of dramaturgy were carried out by Uzbek literary scholars A.Fitrat, I.Sultanov, B.Jalolov, E.Umarov, I.Pall, [6]as well as B.Imomov, H.Abdusamatov, I.Ganiyev, Sh.Rizayev, and U.Joraqulov, who conducted research on the history and theory of theater, and partly on the dramatic skill of a particular creator. In their research works, the history of the problem, drama theory, dramaturgical skill, the concept of historicity as an artist, the nature of modern dramas, the prototype of time and hero, the concepts of monologed speech and dialogic speech in drama were widely studied[7].

By the second half of the 1980s, this need was properly understood. In particular, the attitude towards the personalities and literary heritage of the representatives of modern literature, such as N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Normatov, O.Sharafiddinov, E.Karimov, T.Boboev, B.Qosimov, N.Vladimirova, Sh.Yusupov, U.Dolimov, Sh.Rizaev, S.Ahmedov, H.Umurov, E.Khudoyberdiev, A.Aliev, was renewed[8].

In the research of literary critics A.Soliev, N.Odilova, D.Rasulmuhammedova, D.Rahmatullaeva, M.Otajonova, M.Umarova, N.Tursunova, V.Ahmedova, one or another aspect of the problem has been studied in monographic form[9]. Among the following studies, it is worth highlighting the works of H.Abdusamatov and dramatist Shukhrat Rizaev. In his study "Theory of Drama", H.Abdusamatov observes the artistic interpretations of the spirit of the era and the spirituality of the hero in the harmony of conflict, character, plot and composition, and language issues. On this basis, he separately analyzes the diverse genre manifestations of drama that have emerged. In his opinion, the history and theory of drama are stages of

---

[6] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006; Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980; Жалолов Б. Ўзбек драматургияси поэтикаси масалалари. – Тошкент: Фан, 1984; Умаров Э. У, Палл И.С. Жанр эстетикаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1985.

[7] Имомов Б. Ва бошқалар. Ўзбек драматургияси тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995; Абдусаматов Ҳ. Драма назарияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2000; Ғаниев И. М. Фитрат драмалари поэтикаси. Филол. фан. д-ри. (DSc) ... дис. – Тошкент: 1998; Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997; Жўрақулов. У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015.

